

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB-INTERNATLARIDA BOLALAR IJROCHILIGINI SHAKLLANTIRISH

Nazarov Mustaf o Mirzoali o'g'li

Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom

san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab internati o'qituvchisi

Nasretdinova Zarina Muinovna

Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom

san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab internati o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10803255>

Annotatsiya. Boshlang'ich musiqa savodi, musiqiy asarlar ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, bastakorlar va kompozitorlar ijodini, o'zbek cholg'u asboblarini bilishni, mashhur o'zbek xalq sozanda va xonandalar ijodiy faoliyati, musiqiy atama va iboralar, musiqa janrlari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: Musiqa, madaniyat, o'quv, fan, savod, faoliyat, kuylash.

“Musiqa san'ati va madaniyati” o'quv fanining mazmuniga bo'lgan talablar nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topib, ular quyidagi mavzularni belgilaydi.

Bu mavzular dars jarayonida quyidagi o'quv faoliyatlarida nazariy va amaliy mashg'ulotlar vositasida bajariladi.

- 1.Musiqa tinglash
- 2.Jamoa bo'lib kuylash
- 3.Musiqa savodi.
- 4.Musiqa ijodkorligi.

Musiqa tinglash ta'lim mazmunining asosini tashkil etadi. Asarlarni kuylash, tinglash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan bir qatorda ritmik cholg'uchilik, musiqali harakatlar, ijodkorlik faoliyatlari bilan har tomonlama o'rganish va o'zlashtirish, musiqiy tavsiflarni ifodalash imkoniyati yaratiladi. O'zbek xalq musiqasi, o'zbek bastakorlari va kompozitorlari musiqiy asarlaridan namunalar tinglanadi.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqiy qobiliyati xamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlar ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'rnavoqlik qilishga intiladi.

O'zbek xalq qo'shiqlari, o'zbek bastakorlari va kompozitorlari qo'shiqlari, jaxon va qardosh xalqlar kompozitorlari qo'shiqlaridan namunalar kuylaydilar.

Musiqa savodi barcha bilimlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsdan qaysi faoliyat mashg'uloti (tinglash, ijro etish, musiqiy harakatlar) bo'lmasin, berilgan mavzudagi asar o'rganiladi va uning xususiyatlari (janri, shakli, tuzilishi, ijrochiligi) haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. SHu bois, musiqa savodi faqatgina nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'lmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim,tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari nota savodi) tashkil etadi.

Musiqa savodida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur'at), alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifoda tili, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minor ladi haqida tushuncha beradi.

Musiqaning tinglash yakkanavozlik va jo'rnovozlikni ajrata bilish, ansambl va orkestr ijrosini farqlay bilish, sozlar va sozlar tembrini ajrata olish, musiqiy did va idrokni rivojlantirish. O'zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalarni tinglash va boshqalar.

Qo'shiq ijrochiligi, so'zlar ijrochiligi, raqs ijrochiligi, yakka va jamoa bo'lib ijro etish, xalq va kasbiy musiqalar bolalar kuy va qo'shiqlari, ommaviy xalq kuy qo'shiqlari, xalq sozanda va xonandalar ijodini bilish. Musiqaning ifodaviy tili: kuy, ritm-usul, sur'at, o'lchov, registr, dinamik belgilar bilan tanishish. Major va minor ladlarini farqlay bilish. Oddiy musiqalar shakllari: bir qismli, ikki qismli musiqalar shakllari. Asosiy musiqiy faoliyat turlari: bastakor, kompozitor, ijrochi sozandalar ijodi bilan tanishish. Ijrochilar: ansambl, orkestr, xalq va professional sozandalar ijrochiligi haqida tushunchaga ega bo'lish.

O'quvchilar o'zlashtirish kerak bo'lgan bilimlar:

- o'tilgan asarning nomini bilish;
- shoir va bastakorni farqini bilish;
- musiqaning badiiy tavsifi (quvnoq, sho'x, g'amgin va v.b) ni bilish;
- musiqaning tasviriy tavsifi (tabiat, o'yin, ertak, hazil, o'yinchoqlar obrazlari, kundalik hayot) haqida tushunchaga ega bo'lish;
- nota chizig'i, skripka kaliti, takt chizig'i, etti tovush nomini bilish;
- musiqiy ifoda tavsifiga qarab ijro tiplari sust, sekin, o'rta va tez suratlarda ijro etilishini bilish;
- kuyga tavsif berish (sekin, tez, sakramali) va unda nima ifodalanganligini bilish;
- xalq cholg'u asboblari doyra, rubob, nog'ora, karnay bilan tanishish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin: qo'shiq o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bu xususiyatlar avvalo o'quvchilarning ayrimlari bog'chadan maktabga kelishi va boshqa bir qismi bog'chada bo'lmay maktabga kelishi bilan bog'liq. Bog'chadan kelgan bolalar odatda ancha faol va harakatchan bo'ladilar. Musiqiy imkoniyatlar, qobiliyatlar va didlar ham har xil bo'lishi mumkin. Bular bilan musiqalar mashg'ulotlarini o'tkazishda kamchiliklarni aytib, uyaltirmasdan har xil rag'batlantirish usullarini qo'llash va har bir bolaga alohida (individual) yondoshish asosida pedagogik muloqot qilish va pedagogik ta'sir o'tkazish mumkin.

References:

1. Yarashev J. Artistic and Aesthetic Features of "Buchor" Tune //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – C. 118-122.
2. Yarashev J. T. "BUKHORCHA" AND "MAVRIGI" SONG CLASSES–AS A NATIONAL AND NOETIC SPIRITUAL VALUES OF THE UZBEK NATION //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro, 2013. – №. 39. – C. 114-117.
3. Ярашев Ж. Т. SONGS OF COMPOSITE CYCLES OF "BUHORCHA" AND "MAVRICHI" AS MUSICAL VALUES FOR UZBEK PEOPLE //Актуальные проблемы современной науки. – 2012. – №. 2. – C. 93-95.
4. Ярашев Ж. Т. Музыкальная терапия //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – C. 641-647.
5. Ярашев Ж. Т. Нравственное и эстетическое воспитание учащихся в сотрудничестве с семьей и школой //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – C. 42-44.
6. Ярашев Ж. Художественно-эстетические особенности мелодии «Бухорча»

//Восточноевропейский научный журнал. – С. 118-122.

7. Uzakova M. et al. Pedagogical Views of Modern Enlighteners on Art and Music //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 56-60.

8. Tourayevich Y. J., Uktamovna M. D. METHODS OF DEVELOPING STUDENT VOCAL DYNAMIC SENSE IN MUSIC CULTURE CLASSES //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.

9. Turaevich Y. J., Botirovna K. M. Creativity in the development of music and pedagogical activity in higher education //Thematics Journal of Arts and Culture. – 2022. – Т. 6. – №. 1.

10. Yarashev D. T., Akhrorov K. K. IN THE GROWTH OF MUSICAL ABILITIES OF STUDENTS IMPORTANCE OF USING THE ACT //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 792-796.

11. Kambarova M.B “O’quvchiarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari”. Scientific journal Scholar volume2, Issue 3. ISSN 2181-4147 VOLUME2, ISSUE 3 JANUAR 2024. 36-37-38-39-40 betlar